XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-avgust VII-18-104-10-0-K/25 Toshkent viloyati

Toshkent viloyati hududidagi markaziy issiqlik ta’minoti korxonalarining issiq suv va isitish xizmatlari tariflari tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1011-sonli qonunining 3-bob 13-moddasiga asosan, Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan viloyat “Olmaliq shahar issiqlik ta’minoti” MCHJga 2025-yil 23-mayda berilgan H-11-01/12-3181-sonli, viloyat “Issiqlik ta’minoti” MCHJga 2025-yil 22-iyulda berilgan H-11-01/12-4494-sonli, “Angren shahar issiqlik ta’minoti” MCHJga 2025-yil 22-iyulda berilgan H-11-01/12-4493-sonli, Chirchiq shahar “Issiqlik ta’minoti” MCHJga 2025-yil 22-iyulda berilgan H-11-01/12-4495-sonli taklif narxlari berilgan.

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining “Olmaliq shahar issiqlik ta’minoti” MCHJga 2025-yil 27-maydagi 10/2793-sonli, viloyat “Issiqlik ta’minoti” MCHJ va “Angren shahar issiqlik ta’minoti” MCHJga 2025-yil 23-iyuldagi berilgan 10/388-sonli, Chirchiq shahar “Issiqlik ta’minoti” MCHJga berilgan 2025-yil 23-iyuldagi 10/363-sonli xatlarini o‘rganib chiqilib, viloyatda markaziy issiqlik ta’minoti korxonalarining issiq suv va isitish xizmatlari tariflarini tartibga solish bo‘yicha doimiy komissiyaning 2025-yil 23-iyuldagi yig‘ilish bayoni va xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 1011-sonli qonuni ijro uchun qabul qilinsin.

2. Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan ma‘qullangan taklif narxlari hamda Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining taqdim etgan xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin;

3. Viloyat “Issiqlik ta’minoti” MCHJ, “Angren shahar issiqlik ta’minoti”, Chirchiq shahar “Issiqlik ta’minoti” MCHJ, “Olmaliq shahar issiqlik ta’minoti” MCHJlar tomonidan iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlari tariflari taqdim etilgan hulosalar asosida **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (B.Kabulov), “Toshkent haqiqati” va “Tashkentskaya pravda” gazetalari (G‘.Sheraliyev) iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlarining yangi tariflari 2025-yil 10-sentyabrdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishi tavsiya etilsin.

5. Viloyat “Issiqlik ta’minoti” MCHJ (O.Xojiyev), “Angren shahar issiqlik ta’minoti” MCHJ (D.Pardayeva), Chirchiq shahar “Issiqlik ta’minoti” MCHJ (M.Mirtullayev), “Olmaliq shahar issiqlik ta’minoti” MCHJ (I.Ergashev)lar:

iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlarining yangilangan tariflari 2025-yil 10-sentyabrdan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risida ma’lumot taqdim qilib borish vazifalari yuklansin hamda belgilangan narxlarni muddatidan oldin qo‘llanilishiga hamda asossiz oshib ketmasligi uchun shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

6. Mazkur qaror bo‘yicha tariflar 2025-yil 10-sentabrdan qo‘llanilishini inobatga olgan holda Xalq deputatlari toshkent viloyati kengashining 2025-yil 6-yanvardagi VII-4-1-10-0-K/25-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat, transport va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov hamda viloyat hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEVA
SAYYORA
MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining
2025-yil 18-avgustdagi
VII-18-104-10-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati hududidagi markaziy issiqlik ta’minoti korxonalarining iste’mochilarga issiqlik energiyasi va issiq suv ta’minoti xizmatlari TARIFLARI

Viloyat “Issiqlik ta’minoti” MCHJ					
T/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx(ta’rif) (so‘m)**	**Amaldagi narx (ta’rif) (so‘m) (QQSbilan)**	**Taklif etilayotgannarx (ta’rif) (so‘m)**	**Taklif etilayotgan narx (ta’rif) (so‘m)(QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	83 450	93 464	91 795	102 810,4
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	4 593	5 144.16	5 049	5 654,88
1.3.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	17 925,1	20 076,11	19 718	22 084,16
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	166,9	186,93	183,59	205,62
2	**Byudjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	500 000	560 000	625 000	700 000
3	**Ulgurji iste’molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	320 000	358 400	625 000	700 000
Angren shahar issiqlik ta’minoti” MCHJ					
T/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx(ta’rif) (so‘m)**	**Amaldagi narx (ta’rif) (so‘m) (QQSbilan)**	**Taklif etilayotgannarx (ta’rif) (so‘m)**	**Taklif etilayotgan narx (ta’rif) (so‘m)(QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	83 490	93 508,80	91 839	102 859,68
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	5 426,85	6 078,07	5 969,54	6 685,88
1.3.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	17 816,77	19 954,78	19 598,44	21 950,26
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	152,29	170,56	167,51	187,62

2	**Byudjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	440 500	493 360	520 000	582 400
3	**Ulgurji iste'molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	440 500	493 360	520 000	582 400
Chirchiq shahar "Issiqlik ta'minoti" MCHJ					
t/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx(ta'rif) (so'm)**	**Amaldagi narx (ta'rif) (so'm) (QQS bilan)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm)(QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	90 447,5	101 301,2	99 492,25	111 431,32
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	4 975	5 572	5 472	6 128,72
1.3.	Issiq suv 1kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	18 442	20 655,04	20 286	22 720,85
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	153	171,36	168	188,32
2	**Byudjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	508 000	568 960	625 000	700 000
3	**Ulgurji iste'molchilar uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	508 000	568 960	625 000	700 000
"Olmaliq shahar issiqlik ta'minoti" MCHJ					
t/r	**Xizmat turi**	**Amaldagi narx(ta'rif) (so'm)**	**Amaldagi narx (ta'rif) (so'm) (QQS bilan)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm)**	**Taklif etilayotgan narx (ta'rif) (so'm)(QQS bilan)**
1	**Aholi uchun**				
1.1.	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	90 000	100 800	99 000	110 880
1.2.	Issiq suv 1m³ hisobdoni mavjud bo`lganda	4 950	5 544	5 445	6 098,40
1.3.	Issiq suv 1 kishi uchun 1 oyga hisobdoni mavjud bo`lmaganda	18 720	20 966,4	20 592	23 063,04
1.4.	Bir kun uchun 1 kv.m isitiladigan maydonga	126	141,12	138,6	155,23
2	**Byudjet tashkilotlari uchun**				
	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	245 000	274 400	270 000	302 400
3	**Ulgurji iste'molchilar uchun**				

	Issiqlik energiyasi 1 Gkal	250 000	280 000	270 000	302 400